

ROMAN-GERMAN HUQUQIY TIZIMIGA KIRUVCHI SHVEYTSARIYA VA FRANSIYA DAVLATLARI TAJRIBASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI

Farxutdinova Matluba Amanbayevna
Toshkent viloyati yuridik texnikumi o`qituvchisi

Kalit so’zlar: *huquqiy tizim, demokratik davlat, jamoatchilik, fuqaro, Yevropa.*

KIRISH

Kuchli jamoatchilik nazoratining asosiy tomonini, mexanizming samarali ishlashini biz nimada ko’ramiz? Bunda birinchi jihatni biz fuqarolar o’zlari bilan bog’liq ijtimoiy munosabatlarni hal etishdagi faol ishtiroki va buni qat’iy talab qila olishida ko’rishimiz mumkin. Umuman olganda, demokratik davlatlardagi asosiy o’rin fikr erkinligi va jamoatchilik nazoratini kuchliligi bilan belgilanadi. Bunda jamoatchilik nazorati kuchayishidan oldin aynan jamiyatning o’zi ushbu omilga tayyor bo’lishi lozim. Ya’ni jamiyatga kuchli ta’sirga ega imkoniyatlar jamoatchilik nazorati mexanizmlari ta’minlab berilgani bilan jamiyat ushbu holatni anglab yeta olmasa, undan foydalana olmasa, holatlarni tub mohiyatini tushunmasa, barcha harakatlar o’z samarasini yetarli darajada bermaydi. Bu bizga shuni ko’rsatadiki, ko’plab salbiy holatlar jamoatchilik nazoratining sustligi, jamiyatning huquqiy vaziyatga xolis tarzda baho bera olmaydi, natijada ushbu zararli ijtimoiy munosabatlar davom etaveradi. Ushbu holatlar mamlakatimiz rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi, bunga aholining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonlik darajasi yaxshi emasligi, o’z ijtimoiy vazifalarini to’liq anglab yetmasligi, jamoatchilik kuchini his qilmasligi kabi holatlar sababchi bo’ladi.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartidir. Fuqarolik jamiyatini negizini biz, asosan, jamoatchilik nazorati omillarini mamlakatda huquqiy izchilikni ta’minlanganligi va unda aholining roli, qanchalik ta’sir kuchga ega ekanligi bilan belgilanadi.

G’arb mamlakatlarida jamoatchilik nazoratining keng tarqalgan shakllaridan biri fuqarolar davlat va mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtiroki juda rivojlangan. Fuqarolar va OAV institutlari tomonidan davlat organlari faoliyati hamda hukumat harakatlari qonunga va jamoatchilik manfaatlariga to’g’ri kelish yoki kelmasligi doimiy nazorat qilib boriladi.

Yuqoridagi fikrlarni amaliy isboti sifatida ularni davlatlar tajribasida ko’rib chiqsak.

METODOLOGIYA

Shveytsariya qonunchiik tizimida jamoatchilik nazoratining o’ziga xos xususiyatlari.

Shveytsariyada ham jamoatchilik nazorati taraqqiy etgan o’ziga xos tarmoqlardan biri. Davlatning o’zi jamoatchilik nazoratini faollashishidan manfaatdor va bunga doimiy tarzda yordamlashib keladi.

Bu borada Shveytsariya Konstitutsiyasiga binoan[1], bu mamlakat fuqarolariga parlamentda ko'rib chiqilishi shart bo'lgan qonun loyihasini taklif etish huquqi berilgan. Fuqarolarning davlat ko'rib chiqilishi shart bo'lgan qonunchilik tashabbusi huquqi mavjud. Uning mazmuni parlament tomonidan majburiy ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan qonun loyihasini taklif qilishdan iborat bo'lib, u har qanday qarorni qabul qilish, masalan, loyihami o'zgartirish yoki rad etish huquqiga ega. Shu bilan birga, Shveytsariya Konstitutsiyasida ushbu tizim bo'yicha maxsus norma mavjud bo'lib, unga ko'ra bu tashabbus milliy darajada Federal konstitutsiyani qisman qayta ko'rib chiqish yo'li bilan umumiyligi taklif yoki ishlab chiqilgan loyiha shaklida amalga oshirilishi mumkin. Jamoaviy tashabbus Shveytsariya va kantonlar fuqarolari ovoziga taqdim etiladi. Federal Majlis tashabbusni qabul qilishni yoki rad etishni tavsiya qiladi[2]. Yuqoridagi Konstitutsiyaviy norma shuni ko'rsatadiki, davlatda jamoatchilik nazoratining deyarli barcha ijtimoiy jihatlarini tan oladi. Bunda jamoatchilikka qonunchilik tashabbusi huquqining berilganligi bu sohaga bo'lgan e'tiborni naqadar muhimligini yana bir bor isbotlaydi. Shuningdek, Shveytsariyada "**jamoatchilik talabi**" tushunchasi ham mavjud bo'lib bu fuqarolarning har qanday davlat tashkilotidan o'ziga kerakli bo'lgan hujjatlarni talab qilib olish huquqini anglatadi. Ushbu tushuncha paydo bo'lgani fuqarolar va davlat bilan jamoatchilikning aloqalari ta'minlanganligini, fuqarolar har qanday hujjatni hech qanday to'siqsiz olish imkoniyatiga ega bo'lgan ekanliklarini hukumat tomonidan ta'minlab berilganligida ko'rishimiz mumkin.

Zero, jamoatchilik nazorati mexanizmining birinchi talabi ham aynan jamoatchilikning ichki rasmiy hujjatlar bilan erkin va hech qanday qarshiliksiz foydalana olishga bog'liq. Shveytsariyada jamoatchilik nazorati o'ziga xos taraqqiy etish usullari bilan rivojlanib borgan buni biz aynan qonunchilik tizimidagi o'zgrishlari misolida ham ko'rishimiz mumkin hisoblanadi.

2011-yilda "**Jamoatchilikni xabardor qilish to'g'risida**"gi Qonunining qabul qilinishi Shveytsariya bu borada tashlagan eng katta qadamlardan biri bo'lgan deyish mumkin. Xususan, Shveytsariyaning "**Jamoatchilikni xabardor qilish to'g'risida**"gi qonunining 15-moddasida belgilab qo'yilgan qoidalar bo'yicha, jurnalistlar va parlamentga kiruvchi har qanday qonun shakllarini aholiga u parlament tomonidan tasdiqlangunga qadar aholiga yetkazilishi lozim hisoblanadi[3]. Yuqoridagi qonun ham shuni ko'rsatadiki, Shveytsariya qonunchilik tizimida hech bir amaliyat tizimlari jamoatchilik bilan kelishmasdan amalga oshirilmasligi kerakligi aytib o'tilgan. Endi shu o'rinda milliy tajribamizga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida bu kabi tizim hali to'liq taminlanmagan, regulation.uz tizimiga esa ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga joylanadi xolos, ya'ni bizning tizimda har bir normativ hujjat jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi bo'yicha qat'iy talablarning yo'qligi buning isbotidir.

Umuman olganda, Shveytsariyada jamoatchilikning davlat mexanizmlari bilan ishlashi va ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarining ta'minlashi bo'yicha o'ziga xos tajriba yaratganini ko'rishimiz mumkin.

Fransiyada jamoatchilik nazorati.

Fransiyada ham jamoatchilik nazorati o'ziga xos ko'rinishga ega. Fransiyada jamoatchilik nazoratining asosi ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar bilan ochib berilgan ijtimoiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

1978-yil 17-iyulda Fransiya Respublikasida qabul qilingan № 78-753-sonli maxsus "Boshqaruv organlari va jamoatchilik bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"^[4] gi qonunga binoan, jamoatchilikka va barcha manfaatdor tomonlarga davlat organlarining faoliyati va ichki ma'muriy hujjatlari bilan tanishish huquqi kafolatlangan. Ma'muriy hujjatlarga kodekslar, ma'ruzalar, tadqiqotlar, hisobotlar, bayonnomalar, statistik materiallar, direktivalar, yo'riqnomalar, sirkulyarlar, vazirliklarning ma'muriy tartib-taomillariga oid so'rovlari va javoblari, davlat kengashi va ma'muriy sudlarning xulosalaridan tashqari qisqa bayonlar, yozma tarzdagi ko'rsatmalar va qarorlar, audio va video yozuvlar, bank ma'lumotlari hamda shaxsiy xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlardan xoli bo'lgan boshqa axborot kiradi^[5].

Fransiyada jamoatchilik ekspertizasi: Fransiyada jamoatchilik nazorati bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazilish davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligining shakllaridan biri ekanligi, jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvida naqadar muhim ekanligini yana bir bor isbotlab beradi.

Fransiyada *jurnalistik tekshiruv jamoatchilik nazoratining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi*. Jurnalistik tekshiruvlar orqali inson huquqlari va erkinliklari buzilganiga, turli sohalardagi salbiy hodisalarga jamiyatning, hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning e'tiborini qaratish ko'zda tutiladi. Bu borada xalqaro hujjatlarda ham bu kabi ijtimoiy munosabatlar kafolatlab qo'yilgan. (Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har bir kishining e'tiqod erkinligi va uni erkin izhor etish hamda u bo'ycha axborotlarni izlash huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan)^[6]. Bu huquq hech qanday to'sqiniksiz shaxsning davlat chegaralaridan qat'iy nazar, har qanday vositalar bilan axborot, g'oyalarni qidirish, topish va tarqatish erkinliklarini o'z ichiga oladi.

Ma'muriy hujjatlar bilan tanishish komissiyasi tashkil etilgan (CADA) jamoatchilik nazoratida o'rin tutuvchi alohida o'ziga xos tizim sifatida. Ushbu komissiya Fransiyada jamoatchilik nazoratining yana bir alohida shakllaridan biridir. Ushbu tizim Fransiya fuqarolarning davlatdagi ijtimoiy munosabatlarga oid bevosita o'ziga kerakli hujjatlarni davlat organlaridan taqdim etilishi va ta'minlanishi holatini tekshirib boradi. Ma'muriy hujjatni taqdim etmagan boshqarmaning qaroridan norozi bo'lgan fuqaro mazkur komissiyaga murojaat etishi mumkin^[7]. Agar u komissiyaning qaroridan ham norozi bo'lsa yoki komissiyaning ijobiy qaroriga qaramasdan, ma'muriyat axborot bermasa, bunday holda fuqaro sudga murojaat etishi mumkin. Agar shaxs ma'muriy hujjatlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelsa, mazkur komissiya ma'muriy hujjatlar bilan tanishish erkinligiga rioya etilishini xulosalar berish orqali kuzatib boradi. Tegishli organlarga qonunni tatbiq etish bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan maslahatlar beradi. Jamoatchilik hayoti uchun muhim bo'lgan masalar yuzasidan qonunchilikka o'z takliflarini qonunchilik subyekti sifatida berishi mumkinligi Fransiyadagi ushbu jamoatchilik

organining o‘ziga xos ishslash ahamiyatini ochib beradi. Yuqoridagi holatda ham biz jamoatchilik nazoratining o‘ziga xos maxsus xarakterga ega ekanligini va uning oldida hech qanday to‘sinq yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolarning har qanday davlat tashkilotidan o‘ziga aloqador masalalar bo‘yicha har qanday ma’lumotlarni talab qilib olish huquqi bu o‘ziga xos jamoatchilik nazorati mexanizm shaklidagi tajribadir.

Bizning davlatimizda esa ushbu shakldagi jamoatchilik nazorati mexanizmining ishslash tartibi hali ishlab chiqilmagan.

HULOSA

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, har bir insonda o‘ziga xos vatanparvarlik, jamiyatga daxldorlik, doimiyadolat mezonlariga jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga o‘zaro aloqadorlik hissi shakllanmas ekan, jamoatchilikning o‘z xohish irodasi bilan jamoatchilik nazoratida faol ishtirokini ta’minalash imkonsiz bo‘lib boraveradi. Jamoatchilik nazorati jamiyat va davlat organlari uchun foydalidir. Shu bilan birlgilikda qonunlarning ishlashini, qonunlarni hurmat qilish va himoya qilishni ta’minalaydi. Bundan tashqari, ushbu mexanizm davlat xizmatchilarini turli xil noqonuniy xatti-harakatlariga qarshi turishga undovchi kuch sifatida ishlaydi. Rasmiylar esa jamoatchilik nazorati natijasida o‘z harakatlarini to‘g‘rilashadi, o‘z ishlariga mas’uliyatlityondashishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Pollitt, C. 2012. “The New Public Management in International Perspective: An Analysis of Impacts and Effects.” In K. McLaughlin, S.P. Osborne and E. Ferlie (eds). New Public Management: Current Trends and Future Prospects. London: Routledge, 174-175.
2. Painter, M. 2020. “Policy Capacity and the Effects of New Public Management.” In T. Christensen and P. Lægreid (eds). New Public Management: The Transformation of Ideas and Practice. Aldershot: Ashgate, 109-129
3. Ongaro, E. 2017. Public Management Reform and Modernization: Trajectories of Administrative Change in Italy, France, Greece, Portugal and Spain. Cheltenham: Edward Elgar.
4. Ostrom, V. (2018) The Intellectual Crisis in American Public Administration (3rd Edition). Alabama: University of Alabama Press.
5. Schein, E. H. (2015). Organizational Psychology Then and Now: Some Observations. Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior, 2, 18–19.
6. Koch, R. (2013). Paradigmenentwicklung und Institutionalisierung der Verwaltungswissenschaft. In R. Koch & R. Vogel (Eds.), Paradigmenkonkurrenz im Public Management (pp. 31-55). Wiesbaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften.
7. Ellwein, T. (2018). The History of Public Administration. H. Siedentopf (Eds.), Public Administration in French (pp. 53-55).